

Xalqaro biologiya olimpiadasi nazorat savollari javobi (qiyinlik darajasi A va B tipda).

1. Duragaylash usulida tog'olchanning urug'chisi olcha changchisi tomonidan changlanib, urug'langandan so'ng hosil bo'lgan duragayning murtak va endospermadagi xromosomalar sonini ko'rsating

A) murtak-24; endosperma-32

B) murtak-48; endosperma-72

C) murtak-24; endosperma-36

D) murtak-24; endosperma-40

2. Sariq donli geterozigota no'xat bilan yashil rangli no'xatlar o'zaro chatshtirilganda olingan avlod urug'lari ekilgan maydonda jami 4200 ta o'simlik mavjud. Nazariy jihatdan shu maydondagi jami o'simliklardagi sariq rangni belgilovchi A geni (I) va yashil rangni belgilovchi a (II) genlarini uchrash ehtimolini aniqlang.

A) I-2100; II-6300

B) I-2100; II-2100

C) I-735; II-3150

D) I-4200; II-4200

3. Ichburug' kasalligiga xos bo'lmagan xususiyatlarni aniqlang.

1) me'da-ichakning yallig'lanish kasalligi; 2) me'da-ichakning yuqumli kasalligi; 3) qo'zg'atuvchisi virus; 4) qo'zg'atuvchisi bakteriya; 5) qonda eritrositlar miqdori kamayadi; 6) qonda leykositoz kuzatiladi; 7) emlash orqali passiv immunitet hosil qilinadi; 8) emlash orqali suniy aktiv immunitet hosil qilinadi; 9) uy pashshasi tomonidan tarqaladi; 10) kanalar tomonidan tarqatiladi

A) 1, 3, 5, 7, 10

B) 2, 3, 5, 8, 10

C) 2, 4, 6, 8, 9

D) 1, 4, 6, 7, 9

4. Xlamidomonada va yashil evglena uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Xlorofil pigmenti xromatoforasida joylashgan

2) Yorug'likka nisbatan javob reaksiyasi fototaksis deyiladi

3) Bir hujayrali yashil suvo'ti

4) Hujayra markaziga ega

5) Yorug'likka nisbatan javob reaksiyasi fotonastiya deyiladi

6) Faol harakatlanadi

7) Sitokinezda o'rtasida membrana paydo bo'lib chetga qarab o'sadi

8) Xromosomasidagi DNK oqsil bilan kompleks hosil qiladi

A) 2, 4, 5, 6

B) 3, 4, 7, 5

C) 1, 6, 4, 8

D) 1, 2, 6, 8

5. Embrional davrda sodir bo'lmaydigan ontogenetik o'zgaruvchanlik to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

1)odamning umurtqa pog'onasida kifoza va lordozlarning hosil bo'lishi; 2)assidiyaning xordasini yo'qolishi; 3)iguanada dumning paydo bo'lishi; 4)baqada jabrani paydo bo'lishi; 5)baqada jabrani o'pka bilan almashinishi; 6)sudralib yuruvchilarda epiteliy va biriktiruvchi to'qimadan muguz tangachani paydo bo'lishi; 7) tovuqlarda qanotning paydo bo'lishi; 8) chigirtkalarda qanotning paydo bo'lishi.

A) 1, 2, 5, 8

B) 3, 4, 6, 7

C) 2, 3, 5, 7

D) 1, 4, 6, 8

@olimpdep



Fan olimpiadalari bo'yicha
iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash
DEPARTAMENTI